

“TBC Bank” ATBning “TBC Osmon Mastercard kredit kartasi mijozlari uchun imtiyozlar” dasturini o‘tkazish qoidalari

MUNDARIJA

1. Umumiy qoidalar;
2. Atama va ta’riflar;
3. Dastur tashkilotchisi;
4. Dasturda ishtirok etish va imtiyozlarni olish tartibi;
5. Ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari;
6. Bankning huquq va majburiyatlari;
7. Javobgarlik;
8. Nizolarni hal etish tartibi;
9. Boshqa shartlar.

1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. “TBC Bank” ATB (keyingi o‘rinlarda – Bank)ning “TBC Osmon Mastercard kredit kartasi mijozlari uchun imtiyozlar” dasturining (keyingi o‘rinlarda – Dastur) mazkur qoidalari (keyingi o‘rinlarda – Qoidalar) Bank mijozlarining Dasturda ishtirok etish shartlari va tartibini belgilab beradi.
- 1.2. Ushbu Dastur Qoidalari lotereya emas yoki Dasturda ishtirok etish bilan bog‘liq holda, Dastur ishtirokchilari (keyingi o‘rinlarda – Ishtirokchi va/yoki Ishtirokchilar) uchun mol-mulk xavfini yuzaga keltiruvchi tavakkalchilik asosida yaratilgan o‘yin emas. Dasturni o‘tkazish tartib-taomili ishtirokchilar tomonidan biror-bir to‘lovni kiritishi bilan bog‘liq emas.
- 1.3. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolar Kodeksining 367-moddasiga va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalar Bankning rasmiy saytida joylashtirilgan - www.tbebank.uz.
- 1.4. Dastur boshlanish sanasi: 2026-yil 15-aprel; Dastur tugash sanasi: 2026-yil 31-dekabr (shu kuni ham). Dasturning amal qilish muddati: boshlanish sanasidan to tugash sanasigacha (shu kuni ham) bo‘lgan butun davr mobaynida. “TBC Osmon Mastercard kredit kartasi mijozlari uchun imtiyozlar” dasturi doirasida olingan imtiyozlardan (bundan keyin - Imtiyozlar) foydalanish muddati: 2026-yil 15-apreldan 31-dekabrgacha (shu kun ham).
- 1.5. Dastur o‘tkazilish joyi: O‘zbekiston Respublikasi hududi.
- 1.6. Dasturning amal qilish muddati davomida quyidagi shartlarga javob beradigan istalgan tasdiqlangan Bank mijozi Dastur ishtirokchisi bo‘lishi mumkin:
 - 1.6.1 Dastur amal qilish muddati davomida faollashtirilgan limitga ega bo‘lgan TBC Osmon Mastercard kredit kartasiga (bundan keyin - Karta) ega bo‘lish;
 - 1.6.2 Bank mijozi Imtiyozlarni olish vaqtida Karta bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikka ega bo‘lmasligi kerak.
- 1.7. Bankning xizmatlari va mahsulotlarini olish, ulardan foydalanish tartibi va shartlari Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan va/yoki Bankning mobil ilovasi orqali tanishish mumkin bo‘lgan Bankning Bosh Shartlari (bundan keyin - BSh) va Bank mahsulotlarining boshqa shartnomalari bilan tartibga solinadi.

2. ATAMA VA TA'RIFLAR

Bank	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki
Dastur	“TBC Bank” ATBning “TBC Osmon Mastercard kredit kartasi mijozlari uchun imtiyozlar” dasturi
Bank Mijozi	Bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxs
Ishtirokchi	Dastur ishtirokchisi sifatida ushbu Qoidalar shartlariga mos keladigan Bank mijozi
Bank ilovasi	Bankning (TBC UZ) mobil ilovasi — AppStore va Google Play platformalaridagi smartfonlar uchun mavjud.
Hamkor kompaniyaning ilovasi	Phoenix Pass mobil ilovasi — AppStore va Google Play Store platformalarida smartfonlar uchun mavjud.
Kredit karta	Bank tomonidan taqdim etilgan kreditlash limiti doirasida Qarz oluvchi tomonidan operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan hamda unga biriktirilgan yagona bank hisobvarag'i bilan Bank tomonidan chiqarilgan TBC Osmon Mastercard bank kredit kartasi

3. DASTUR TASHKILOTCHISI

- 3.1. Dastur tashkilotchisi Bank hisoblanadi.
- 3.2. Bankning murojaat uchun ma'lumotlari: 100015, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Fidokor ko'chasi, 10B-uy. Telefon: +99878 777 2727. Pochta: contact@tbcbank.uz
- 3.3. Hamkor kompaniya: “Every App CA” MCHJ, manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 7-uy.

4. DASTURDA ISHTIROK ETISH VA IMTIYOZLARNI OLISH TARTIBI.

- 4.1. Bankning 1.6-bandiga muvofiq bo'lgan Mijozlari ishtirokchi bo'lishlari mumkin.
- 4.2. Ishtirokchilar quyidagi imtiyozlarni qo'lga kiritadilar (ixtiyoriy yoki bir nechtasini tanlash mumkin):
 - A. Phoenix Pass mobil ilovasi orqali butun dunyo aeroportlarining biznes-zallariga kirishga ruxsat;
 - B. Phoenix Pass mobil ilovasi orqali butun dunyo aeroportlarida Fast Track yo'laklaridan foydalanish;
 - C. Paket faollashtirilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun amal qilish muddati bilan xalqaro roumingda 1 Gb internet-paketi (Phoenix Pass mobil ilovasida mavjud).
- 4.3. Ishtirokchi quyidagi jadvalga muvofiq Imtiyozlarni oladi:

Imtiyoz	Soni
A	Dasturning amal qilish muddati davomida 2 marta o'tish
B	Dasturning amal qilish muddati davomida 2 marta o'tish
C	Dastur amal qilish muddati davomida 1 ta Internet-paket

- 4.4. Imtiyozlar faqat Karta egasiga beriladi. Imtiyozlarni uchinchi shaxslarga berish taqiqlanadi.
- 4.5. Imtiyozlarni olish uchun Mijoz quyidagilarni bajarishi lozim:
 - 1.5.1. Hamkor kompaniya bo'lgan Phoenix Pass ilovasini o'rnatib, unda Mijozning Bankda ro'yxatdan o'tkazilgan mobil telefon raqamini ko'rsatgan holda ro'yxatdan o'tish;

- 1.5.2. hamkor kompaniya Phoenix Pass ilovasida TBC Osmon Mastercard kartasini ulash;
 - 1.5.3. Imtiyozdan foydalanish sanasidan kamida 24 soat oldin hamkor kompaniyaning Phoenix Pass ilovasida “TBC Bank” to‘lov usulini tanlab, uni faollashtirish;
 - 1.5.4. Hamkor kompaniyasi Phoenix Pass Bankdan Imtiyoz mavjudligi to‘g‘risidagi tasdiqnomani olgach, mijozga uni olish imkoniyati haqida xabar beradi (zarurat tug‘ilganda);
 - 1.5.5. Imtiyozdan foydalanadigan Mijozning ismi va familiyasi Hamkor kompaniya tomonidan aeroportga yoki imtiyozlarni taqdim etuvchi boshqa tomonga ma‘lum qilinadi – Imtiyozlarni boshqa shaxsga o‘tkazishga ruxsat berilmaydi.
- 4.6. Bank hamkor kompaniyasining Phoenix Pass ilovasida ro‘yxatdan o‘tganidan va ushbu ilovada TBC Osmon Mastercard kartasini ulaganidan so‘ng, Imtiyozlar mavjud bo‘lgan barcha mijozlarga ushbu mijoz uchun mavjud Imtiyozlar soni haqida xabar beradi.
 - 4.7. Foydalanilganidan keyin mavjud imtiyozlar balansi hamkor kompaniyaning Phoenix Pass ilovasida ko‘rsatiladi.

5. ISHTIROKCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 5.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:
 - 5.1.1. Bank qoidalari va shartnomalarida belgilangan hajm va tartibda Dastur to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni olish;
 - 5.1.2. Mazkur Qoidalarning 1.6-bandiga muvofiq bo‘lish sharti bilan ushbu Qoidalarga asosan Ishtirokchi maqomini olish;
- 5.2. Ishtirokchi ushbu Dastur qoidalari bilan tanishib chiqishi shart. Bank Mijozining Dasturda ishtirok etishi avtomat ravishda bunday Bank Mijozining mazkur Qoidalar bilan tanishganligini va ularga to‘liq roziligini anglatadi.
- 5.3. Ishtirokchi Dastur hamkorlari hamda Toshkent xalqaro aeroporti xizmatlaridan foydalanish qoidalari va shartlari bilan tanishib chiqishi hamda ularga rioya etishi shart.

6. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 6.1. Bank Dasturni o‘tkazishi, shuningdek, ushbu Qoidalarga muvofiq Imtiyozlarni taqdim etish majburiyatlarini bajarishi shart.
- 6.2. Mazkur Dastur uning butun amal qilish muddati davomida ushbu Qoidalarning 1.4-bandiga asosan Bank tomonidan bekor qilinishi mumkin emas. Shuningdek, Bank mazkur Dasturning amal qilish muddatini bir tomonlama tartibda uzaytirish huquqini o‘zida saqlab qoladi va bu haqda Ishtirokchilarga mijozlar bilan bog‘lanish uchun istalgan kanallari orqali xabar beradi.
- 6.3. Bank Dastur ishtirokchilarini identifikatsiya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida Dasturni o‘tkazish uchun anketa so‘rovlari yoki boshqa ma‘lumotlar va hujjatlarni to‘plash orqali ishtirokchilarning shaxsiy ma‘lumotlarini to‘plash huquqiga ega.
- 6.4. Bank Qoidalar shartlarini bir tomonlama o‘zgartirish va Dastur to‘g‘risidagi qo‘shimcha ma‘lumotlarni <https://tbcbank.uz/> veb-saytida e‘lon qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi.
- 6.5. Mijoz Bank tomonidan xavf-xatarlar va suiiste‘molchiliklar yuzasidan tekshiruv o‘tkazilgandan so‘ng Imtiyoz olishga da‘vogarlik qilishi mumkin. Bunda, agar Bank Mijoz noqonuniy, shubhali va/yoki firibgarlik harakatlarini amalga oshirmoqda deb asosli ravishda hisoblasa, Bank ushbu Qoidalar shartlarini bajarishni rad etish huquqini o‘zida saqlab qoladi.
- 6.6. Bunda Bank quyidagilarni amalga oshirishi mumkin: (a) har qanday Imtiyozlarni bekor qilish; (b) Mijozning Dasturda ishtirok etishini yoki Imtiyozlarga da‘vogarlik qilishini taqiqlash; (v) Mijozning kelgusi aksiya va o‘yinlarda ishtirok etishini bloklash; va/yoki (g) Mijoz hisob qaydnomasining amal qilishini to‘xtatib turish, har bir holatda, agar u o‘zining oqilona fikriga ko‘ra, Mijozning xatti-harakatlari ushbu Qoidalarga zid deb hisoblasa va/yoki Mijoz Dastur shartlaridan noqonuniy foydalansa yoki uni qandaydir tarzda suiiste‘mol qilsa. Bunga quyidagilar kiradi, lekin bular bilan cheklanmaydi:

- (i) bir nechta hisob qaydnomalarini yaratish;
- (ii) ro'yxatdan o'tish vaqtida yolg'on ma'lumot berish;
- (iii) ijtimoiy tarmoqlarda, veb-saytlarda, qidiruv tizimlarida yoki ommaviy tarqatishning har qanday shakli orqali yolg'on/noqonuniy/xato ma'lumotlarni ommaviy ravishda taqdim etish;
- (iv) hisob qaydnomasi haqiqiy egasining nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga kirish huquqini taqdim etish.

7. JAVOBGARLIK

- 7.1. Bankning Imtiyozni taqdim etish majburiyati har qanday toifadagi Imtiyoz faollashtirilgan vaqtdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.
- 7.2. Dastur amal qilish muddati davomida texnik nosozliklar, uzilishlar, tizimlardagi xatolar yoki hamkorlar va xizmat ko'rsatuvchilar tomonidan majburiyatlarning bajarilmasligi tufayli yuzaga kelgan ushbu Qoidalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi uchun Bank javobgar bo'lmaydi. Bank Ishtirokchilarning va/yoki Imtiyozlarni olish uchun Ishtirokchi tomonidan ko'rsatilgan boshqa shaxslarning xatti-harakatlari uchun javobgar bo'lmaydi.
- 7.3. Agar 7.2-bandda ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelsa, Bank o'zining va hamkorlarining texnik tizimlarida yuzaga kelgan xatolar, uzilishlar va nosozliklarni bartaraf etish muddatlari hamda sanalarini mustaqil belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 7.4. Agar Bank tomonidan uchinchi shaxslar va hamkorlarning qasddan va/yoki qasddan bo'lmagan xatti-harakatlari tufayli ushbu Qoidalar shartlarini bajarish imkoni bo'lmasa, Bank javobgar bo'lmaydi.
- 7.5. Mazkur Qoidalar bilan tartibga solinmagan barcha masalalar Bosh Shartlarga hamda Bank bilan Bank Mijozi o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalarga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

- 8.1. Ushbu Qoidalar kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq bo'lgan barcha nizoli masalalar maslahatlashuvlar va muzokaralar yo'li bilan do'stona asosda hal etilishi lozim. Da'vo qilish tartibi majburiydir.
- 8.2. Agarda Tomonlar 8.1-bandga muvofiq nizolar va kelishmovchiliklarni tartibga solish imkoniga ega bo'lmasalar, nizo Bank ro'yxatdan o'tgan manzil bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etilishi lozim.

9. BOSHQA SHARTLAR

- 9.1. Ushbu Qoidalar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan – www.tbcbank.uz.
- 9.2. Dastur ishtirokchilari yuqorida ko'rsatilgan veb-saytda (yuqorida ko'rsatilgan havola orqali) tegishli o'zgarishlarni tekshirish bilan Dastur shartlarining yangilanishini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.
- 9.3. Bank mijozi Bankning mobil ilovasidagi (TBC UZ) "Fikr-mulohaza" bo'limiga bu haqda yozib, ushbu Dasturda ishtirok etishdan voz kechish huquqiga ega.
- 9.4. Bank xodimlari, Bankka aloqador shaxslarning xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari Dasturda ishtirok etish huquqiga ega emas.